

Aksiya qoidalari

"Bank kartasini ulaganlik uchun bonus" (yangi tahrirda)

Quyida ko'rsatilgan Aksiya qoidalari (keyingi o'rirlarda "Tavsif" deb yuritiladi) Humans sodiqlik Dasturining ajralmas qismi bo'lib, "Humans" MChJ noma'lum shaxslar doirasi uchun taklifi hisoblanadi (manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2-B uy, STIR 306624856).

Aksiya haqida ma'lumot

- 1.1. Ushbu Qoidalarning matnida bosh harf bilan foydalanilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi, agar ushbu Qoidalarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, www.humans.uz Saytida joylashtirilgan Humans sodiqlik dasturi qoidalari keltirilgan.
- 1.2. Aksiya ishtirokchilari – Humans sodiqlik dasturi ishtirokchilari – Humans Mobil ilovasini o'rnatgan, unda ro'yxatdan o'tgan va Qoidalarning 2.2-bandida ko'rsatilgan shartlarni bajargan jismoniy shaxslar.
- 1.3. Mobil ilova – Ishtirokchining foydalanuvchi abonent qurilmasiga (smartfon, planshet) o'rnatilgan mobil operatsion tizimlar uchun Humans.uz ilovasini nazarda tutuvchi dasturiy ta'minot.
- 1.4. Aksiyaning o'tkazilish hududi: O'zbekiston Respublikasi.
- 1.5. Ushbu Tavsif e'lon qilingan kundan boshlab, uning bekor qilinishigacha bo'lgan muddatsiz yangi nashrdagi Aksiya o'tkazilish muddati.

Aksiya tavsifi

- 2.1. Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarning 2.2-bandida ko'rsatilgan harakatlar bajarilgan taqdirda, Ishtirokchiga bank kartasini ulaganlik uchun uning Keshbek hisobvarag'iga 10000 (o'n ming) so'm miqdorida bir martalik Bonus (keyingi o'rirlarda "Bonus" deb yuritiladi) o'tkaziladi.
- 2.2. Bonusni olish uchun Ishtirokchi quyidagi harakatlar jamlanmasini bajarishi kerak:
 - 2.2.1. Mobil ilovada "Bank kartasini ularash" bo'limiga o'tish;

- 2.2.2. o'z karta ma'lumotlarini kiritish: PAN, expiry date, shuningdek, Bank kartasi ulangan mamlakat kodi bilan telefon raqami;
- 2.2.3. To'lov tashkiloti yoki Bank kartasining emitent banki tomonidan belgilangan maxsus parol yoki boshqa autentifikatsiya usullaridan foydalangan holda autentifikatsiyadan o'tish. Bank kartasi ma'lumotlarining haqiqiyligi muvaffaqiyatli tekshirilgandan so'ng, Bank kartasini ulash amalga oshirilgan deb hisoblanadi.
- 2.3. Bonus 2.2-bandda ko'rsatilgan amallar bajarilgandan so'ng bir vaqtning o'zida hisoblanadi.
- 2.4. Bonus bitta Ishtirokchiga bir marta hisoblablanadi va Mobil ilovadagi ulangan kartalar soniga bog'liq emas.
- 2.5. Agar bitta Bank kartasi bir necha marta ulangan bo'lsa, bonus hisoblanmaydi. Ya'ni, bir Bank kartasi ikkinchi marta ulanganidan boshlab, Bonus hisoblanmaydi.
- 2.6. Agar Ishtirokchi mobil ilovani o'chirib tashlab, Mobil ilovada qayta ro'yxatdan o'tsa va Bank kartasini qayta ulasa, Bonus takroran hisoblanmaydi.

Yakuniy qoidalar

- 3.1. Ushbu Qoidalar Humans Saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirish yoki Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasi hisoblanadi. tegishli ma'lumotlar Saytda e'lon qilingan paytdan boshlab, Qoidalar o'zgartirilgan va Aksiya bekor qilingan deb hisoblanadi.
- 3.2. Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarning 2.2-bandida ko'rsatilgan harakatlarning bajarilishi jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta bo'lgan Qoidalarga to'liq va shartsiz rozilikni anglatadi
- 3.3. 27.09.2022-yildagi eski tahrirdagi "Bank kartasini ulaganlik uchun bonus" aksiyasi qoidalari "Bank kartasini ulaganlik uchun bonus" aksiyasi kuchga kirgan paytdan e'tiboran o'z kuchini yo'qotadi (17.10.2022-yildagi yangi tahrirda).
- 3.4. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha boshqa masalalarda Humans sodiqlik dasturi qoidalari amal qiladi